**XALQ DEPUTATLARI QIZILTEPA TUMANI KENGASHINING**

**Q A R O R I**

2025-yil 28-fevral VII-5-34-5-72-K/25 Qiziltepa tumani

**Qiziltepa tumanining ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash to‘g‘risida**

“O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 10-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-sonli bayoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Bosh Vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda tasdiqlangan 03/4.3-253-sonli “Yo‘l xaritasi” hamda O ‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari tuman Kengashi,

**QAROR QILADI:**

**1.** Qiziltepa tumanining ma’muriy-hududiy chegaralarini belgilash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha doimiy ishlovchi komissiyasi tomonidan taqdim etilgan Qiziltepa tumanining Konimex, Navbahor, Karmana tumanlari hamda Samarqand, Qashqadaryo va Buxoro viloyatlari bilan ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash to‘g‘risidagi yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

**2**. Mazkur qaror bilan Qiziltepa tumanining ma’muriy-hududiy chegaralarini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha hududiy komissiyasi tomonidan taqdim etilgan:

Qiziltepa tumanining Konimex, Navbahor va Karmana tumanlari hamda Samarqand, Qashqadaryo va Buxoro viloyatlari bilan ma’muriy-hududiy chegarasining tavsifi **1-ilovaga** va kartografik chizmasi **2-ilovaga** muvofiq ma’qullansin.

**3.** Ushbu qaror, xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashiga yuborilsin.

**4**. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish, tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (N.Hayitov) hamda xalq deputatlari tuman Kengashining agrar, suv xo‘jaligi va ekologiya masalalari bo‘yicha doimiy komissiya (R.Valiyeva) zimmasiga yuklansin.

Sessiyada raislik qiluvchi



BOBOJONOV
ULUG‘BEK
RAXIMOVICH

Xalq deputatlari Qiziltepa tumani
Kengashining
2025-yil 28-fevraldagi
VII-5-34-5-72-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Navoiy viloyati Qiziltepa tumanining chegara**
**TAVSIFI**

Buxoro viloyati, Qiziltepa va Konimex tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joy, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan nuqta boshlang‘ich 1-nuqta deb qabul qilindi. *(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 40°12'58,950", sharqiy uzoqlik koordinatalari 64°52'24,280").*

**A dan B gacha Konimex tumani yerlari bilan 1-9 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:**

**1-nuqtadan** chegara chizig‘i temir yo‘lning janub tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 5628 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°12'48.240", sharqiy uzoqlik 64°56'21.729").*

**2-nuqtadan** chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 779 metr, keyin umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1193 metr, so‘ng janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 598 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°11'37.913", sharqiy uzoqlik 64°55'34.787").*

**3-nuqtadan** chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan umumiy sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2727 metr masofani o‘tadi, keyin quruq chegara chizig‘i orqali janubiy-sharqiy yo‘nalishda 299 metr masofani o‘tib, R-63 raqamli avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°11'10.829", sharqiy uzoqlik 64°57'35.803").*

**4-nuqtadan** chegara chizig‘i R-63 raqamli avtomobil yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 376 metr, keyin R-63 raqamli avtomobil yo‘lining shimol tomoni bilan umumiy sharqiy yo‘nalishda 2308 metr masofani o‘tib, R-63 raqamli avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°11'32.232", sharqiy uzoqlik 64°59'22.394").*

**5-nuqtadan** chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining sharqiy tomoni bilan umumiy shimoliy yo‘nalishda 887 metr, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 268 metr, so‘ng umumiy shimoliy yo‘nalishda 1021 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘lining sharqiy tomonida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°12'40.475", sharqiy uzoqlik 64°59'17.916").*

**6-nuqtadan** chegara chizig‘i temir yo‘lni kesib o‘tib, avtomobil yo‘lining sharqiy tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 53344 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘lining sharqiy tomonida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°15'27.251", sharqiy uzoqlik 64°58'17.645").*

**7-nuqtadan** chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 102 metr masofani o‘tadi, keyin quruq ariqning janub tomoni bilan umumiy sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2572 metr masofani o‘tib, quruq ariqning yonida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°15'20.330", sharqiy uzoqlik 65°00'07.453").*

**8-nuqtadan** chegara chizig‘i quruq chegara chizig‘i orqali sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 3977 metr masofada R-213 raqamli avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, Qiziltepa, Konimex va Navbahor tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joy, R-213 raqamli avtomobil yo‘lining sharqiy tomonida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°14'18.710", sharqiy uzoqlik 65°02'35.192").*

**B dan D gacha Navbahor tumani yerlari bilan 9-13-nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:**

**9-nuqtadan** chegara chizig‘i R-213 raqamli avtomobil yo‘lining sharqiy tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 5712 metr masofada R-63 raqamli avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, R-63 raqamli avtomobil yo‘lining janubiy qismida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°11'25.018", sharqiy uzoqlik 65°01'12.522").*

**10-nuqtadan** chegara chizig‘i R-63 raqamli avtomobil yo‘lining janubiy tomonidan g‘arbiy yo‘nalishda 21 metr masofani o‘tib dala tuproq yo‘liga tutashadi, keyin dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 539 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘lining sharq tomonida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°11'08.260", sharqiy uzoqlik 65°01'06.283").*

**11-nuqtadan** chegara quruq chegara chizig‘i orqali janubiy-sharqiy yo‘nalishda ariq va Duldul zovurini kesib o‘tadi, keyin zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 157 metr masofani, so‘ng sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 756 metr masofani o‘tib, zovurning chap tomonida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°11'00.459", sharqiy uzoqlik 65°01'40.679").*

**12-nuqtadan** chegara chizig‘i ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 33 metrda zovurni kesib o‘tadi, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 196 metr masofani o‘tib, so‘ng quruq chegara chizig‘i orqali janubiy yo‘nalishda 148 metr masofani, so‘ngra g‘arbiy yo‘nalishda 161 metr masofani o‘tadi, keyin irmoqni kesib o‘tib, so‘ng Zarafshon daryosi irmog‘ining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 321 metr masofada Zarafshon daryosini kesib o‘tib, Qiziltepa, Navbahor va Karmana tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joy, Zarafshon daryosining qirg‘og‘ida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°10'42.622", sharqiy uzoqlik 65°01'43.520").*

**D dan E gacha Karmana tumani yerlari bilan 13-26-nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:**

**13-nuqtadan** chegara chizig‘i Zarafshon daryosining suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan umumiy g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2080 metr masofani o‘tib, Zarafshon daryosining qirg‘og‘ida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°10'38.040", sharqiy uzoqlik 65°01'07.742").*

**14-nuqtadan** chegara chizig‘i Zarafshon daryosining suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga

olgan holda 6560 metr masofani o‘tib, Zarafshon daryosining qirg‘og‘ida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°09'15.647", sharqiy uzoqlik 64°58'10.249").*

**15-nuqtadan** chegara chizig‘i umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 760 metr masofani o‘tib, zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 40°09'07.851", sharqiy uzoqlik 64°58'39.628").*

**16-nuqtadan** chegara chizig‘i janubiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 315 metr masofani o‘tib, keyin R-64 raqamli avtomobil yo‘lini kesib o‘tgan holda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burulishlarni hisobga olgan holda 4466 metr masofani o‘tib, so‘ng janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 3168 metr masofani o‘tib, so‘ngra M-37 raqamli avtomobil yo‘li shimol tomoni bilan 657 metr masofani o‘tib, M-37 raqamli avtomobil yo‘li shimol tomonida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°05'36.869", sharqiy uzoqlik 64°58'40.380").*

**17-nuqtadan** chegara chizig‘i M-37 raqamli avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, keyin quruq chegara chizig‘i orqali janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 407 metr masofani o‘tib, keyin zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 2423 metr masofani o‘tib, so‘ng beton lotokning sharq tomoni bo‘ylab janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 859 metr masofada temir yo‘lni kesib o‘tib, temir yo‘l janubida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°03'53.973", sharqiy uzoqlik 64°59'58.537").*

**18-nuqtadan** chegara chizig‘i temir yo‘lning janub tomoni bo‘ylab sharqiy yo‘nalishda 1798 metr masofani o‘tib, temir yo‘l janubida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°03'57.374", sharqiy uzoqlik 65°01'14.247").*

**19-nuqtadan** chegara quruq chegara chizig‘i orqali janubiy yo‘nalishda 30 metr masofani o‘tib, keyin zovurni kesib o‘tgan holda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 624 metr masofani, so‘ng sharqiy yo‘nalishda 298 metr masofani o‘tadi, so‘ngra dala tuproq yo‘lining janub tomonidan sharqiy yo‘nalishda 475 metr masofani o‘tib, R-213 raqamli avtomobil yo‘li hamda dala tuproq yo‘li kesishmasida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°03'35.750", sharqiy uzoqlik 65°01'46.682").*

**20-nuqtadan** chegara chizig‘i R-213 raqamli avtomobil yo‘lining g‘arb tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 259 metr masofani o‘tadi, keyin R-213 raqamli avtomobil yo‘lini kesib o‘tib quruq ariqqa tutashadi va quruq ariqning chap tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1808 metr masofani o‘tib, quruq ariqning chap tomonida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°02'55.063", sharqiy uzoqlik 65°02'50.495").*

**21-nuqtadan** chegara quruq chegara chizig‘i orqali Navoiy kanalini kesib o‘tgan holda janubiy-sharqiy yo‘nalishda 3622 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘lining sharq tomonida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°01'47.702", sharqiy uzoqlik 65°04'54.216").*

**22-nuqtadan** chegara quruq chegara chizig‘i orqali janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1670 metr masofani o‘tib, 23-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°01'15.164", sharqiy uzoqlik 65°05'50.450").*

**23-nuqtadan** chegara quruq chegara chizig‘i orqali janubiy yo‘nalishda 3046 metr masofani o‘tib, 24-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°59'36.442", sharqiy uzoqlik 65°05'51.485").*

**24-nuqtadan** chegara quruq chegara chizig‘i orqali janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 4477 metr masofani o‘tib, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 429 metr masofani o‘tib, so‘ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1728 metr masofani o‘tib, 25-nuqtaga tutashadi, *(shimoliy kenglik 39°56'39.245", sharqiy uzoqlik 65°07'57.097").*

**25-nuqtadan** chegara quruq chegara chizig‘i orqali janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 5634 metr masofani o‘tadi, keyin quruq ariqning o‘ng tomoni bilan umumiy janubiy yo‘nalishda 519 metr masofani, so‘ng g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 274 metr masofani o‘tadi, so‘ngra janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 826 metr masofani o‘tib, quruq ariqning o‘ng tomonida, Samarqand viloyati, Qiziltepa va Karmana tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joyda joylashgan 26-nuqtaga tutashadi, *(shimoliy kenglik 39°53'01.153", sharqiy uzoqlik 65°09'15.502").*

**E dan F gacha Samarqand viloyati yerlari bilan 26 -32 -nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:**

**26-nuqtadan** chegara chizig‘i quruq ariqning shimol tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 255 metr masofani o‘tib, keyin quruq ariqning janub tomoni bilan g‘arbiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 16 metr masofani o‘tib, quruq ariq janubida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°53'00.019", sharqiy uzoqlik 65°09'04.284")*

**27 – nuqtadan** chegara chizig‘i quruq ariq bo‘ylab janubiy-sharqiy yo‘nalishda 3425 metr, keyin janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 304 metr masofani o‘tib, so‘ng quruq ariq va ekin yer chegarasi bo‘ylab janubiy-sharqiy yo‘nalishda 2447 metr, so‘ngra quruq chegara chizig‘i orqali janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1362 metr masofada, quruq ariq bo‘yida joylashgan 28-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°49'49.016", sharqiy uzoqlik 65°10'34.334").*

**28 – nuqtadan** chegara chizig‘i kanalning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1114 metr, keyin umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 2935 metr, so‘ng janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 2453 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°47'31,756", sharqiy uzoqlik 65°13'21,163").*

**29 – nuqtadan** chegara chizig‘i kanal dambasi bo‘ylab janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 5989 metr, keyin janubiy yo‘nalishda 2163 metr masofada quruq ariqqa tutashadi va quruq ariq bo‘ylab janubiy-sharqiy yo‘nalishda 126 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi va dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4926 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 30-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°40'35.736", sharqiy uzoqlik 65°13'52.538").*

**30 – nuqtadan** chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan umumiy janubiy yo‘nalishda 10064 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan

31-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°35'21.256", sharqiy uzoqlik 65°12'54.977").*

**31 – nuqtadan** chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 12468 metr masofani o‘tib, Navoiy, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari chegara chiziqlarining tutashgan joyida joylashgan 32-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°29'08.975", sharqiy uzoqlik 65°15'57.458").*

**F dan G gacha Qashqadaryo viloyati yerlari bilan 32 – 39 –nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:**

**32 – nuqtadan** chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan quruq ariqqa o‘tadi va quruq ariq bo‘ylab g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 3451 metr masofani o‘tib, quruq ariq bo‘yida joylashgan 33-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°28'43.524", sharqiy uzoqlik 65°13'37.073").*

**33 – nuqtadan** chegara chizig‘i quruq ariq bo‘ylab g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1447 metr masofani o‘tib, quruq ariq bo‘yida joylashgan 34-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°28'32.809", sharqiy uzoqlik 65°12'38.190").*

**34 – nuqtadan** chegara chizig‘i quruq ariq bo‘ylab g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 902 metr masofani o‘tib, quruq ariq bo‘yida joylashgan 35-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°28'25.825", sharqiy uzoqlik 65°12'01.542").*

**35 – nuqtadan** chegara chizig‘i quruq ariq bo‘ylab g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 276 metr masofani o‘tib, quruq ariq bo‘yida joylashgan 36-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°28'24.057", sharqiy uzoqlik 65°11'50.492").*

**36 – nuqtadan** chegara quruq chegara chizig‘i orqali g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 4210 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 37-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°27'55.165", sharqiy uzoqlik 65°08'58.421").*

**37 – nuqtadan** chegara chizig‘i zovur bo‘ylab g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 893 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 38-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°27'48.045", sharqiy uzoqlik 65°08'22.266").*

**38 – nuqtadan** chegara chizig‘i zovur bo‘ylab shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 913 metr masofani o‘tib, Navoiy va Qashqadaryo, Buxoro viloyatlari chegara chiziqlari tutashgan joyi, zovur burilishida joylashgan 39-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°28'07.659", sharqiy uzoqlik 65°07'53.740").*

**G dan A gacha Buxoro viloyati yerlari bilan 39 – 1 –nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:**

**39 - nuqtadan** chegara chizig‘i quruq ariq bo‘ylab shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 318 metr masofani o‘tib, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 168 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 40-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°28'19.520", sharqiy uzoqlik 65°07'57.550").*

**40 - nuqtadan** chegara quruq chegara chizig‘i orqali shimoliy yo‘nalishda 6160 metr masofani o‘tib, 41-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°31'37.917", sharqiy uzoqlik 65°07'28.646").*

**41 - nuqtadan** chegara quruq chegara chizig‘i orqali g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 383 metr masofani o‘tib, keyin quruq chegara chizig‘i orqali g‘arbiy yo‘nalishda 383 metr masofani, so‘ng quruq chegara chizig‘i orqali umumiy shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda

3316 metr masofani o‘tib 42-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°33'28.675", sharqiy uzoqlik 65°06'28.432").*

**42 - nuqtadan** chegara quruq chegara chizig‘i orqali shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 27495 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 43-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°42'08.737", sharqiy uzoqlik 64°50'52.514").*

**43 - nuqtadan** chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bo‘ylab umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2331 metr masofani o‘tadi, keyin quruq chegara chiziq bo‘ylab g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1128 metr masofada quruq ariqni kesib o‘tib, so‘ng quruq ariqning shimol tomoni bo‘ylab umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2436 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 44-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°43'37.443", sharqiy uzoqlik 64°47'18.103").*

**44 - nuqtadan** chegara chizig‘i Amu-Buxoro kanalining suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1025 metr masofani o‘tib, keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda Amu-Buxoro kanalini kesib o‘tib 145 metr masofada avtomobil yo‘lining g‘arbiy tomoniga chiqadi, so‘ng avtomobil yo‘lining g‘arbiy tomoni bo‘ylab umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1908 metr masofani o‘tib, Amu Buxoro kanali bo‘yida joylashgan 45-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°45'01.060", sharqiy uzoqlik 64°48'12.984").*

**45 - nuqtadan** chegara chizig‘i Amu-Buxoro kanalining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 11660 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 46-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°48'14.667", sharqiy uzoqlik 64°42'41.021").*

**46 - nuqtadan** chegara chizig‘i Amu-Buxoro kanalining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2488 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 47-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°49'21.093", sharqiy uzoqlik 64°41'54.793").*

**47 - nuqtadan** chegara chizig‘i janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 112 metr masofada kanalni kesib o‘tadi, keyin Amu-Buxoro kanalining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2803 metr masofani o‘tib, so‘ng devor bo‘ylab umumiy shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 496 metr, so‘ngra Amu-Buxoro kanalining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy shimoliy yo‘nalishda 1589 metr masofani o‘tadi va kanal bo‘yida joylashgan 48-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°50'51.787", sharqiy uzoqlik 64°40'35.973").*

**48 - nuqtadan** chegara chizig‘i Amu-Buxoro kanalining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1894 metr masofani o‘tib, 4R-63 avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 49-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°51'40.658", sharqiy uzoqlik 64°39'49.084").*

**49 - nuqtadan** chegara chizig‘i 4R-63 avtomobil yo‘lini kesib o‘tadi va Amu Buxoro kanalining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 7707 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 50-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°54'54.742", sharqiy uzoqlik 64°36'41.737").*

**50 - nuqtadan** chegara chizig‘i Amu Buxoro kanalining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 130 metr masofani o‘tadi, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 40 metr masofani o‘tib, Amu Buxoro kanali bo‘yida, ko‘prikning sharqida joylashgan 51-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°54'58.359", sharqiy uzoqlik 64°36'38.172").*

**51 - nuqtadan** chegara chizig‘i shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Amu Buxoro kanalining suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 12340 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 52-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°00'20.930", sharqiy uzoqlik 64°41'08.013").*

**52 - nuqtadan** chegara chizig‘i avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Amu Buxoro kanalining suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 4860 metr masofani o‘tadi va kanal bo‘yida joylashgan 53-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°01'05.512", sharqiy uzoqlik 64°43'01.987").*

**53 - nuqtadan** chegara chizig‘i umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Amu Buxoro kanalining suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1060 metr masofani o‘tib, 54-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°01'25.145", sharqiy uzoqlik 64°43'37.447").*

**54 - nuqtadan** chegara quruq chegara chizig‘i orqali janubiy-sharqiy yo‘nalishda 84 metr masofani o‘tib, keyin umumiy sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 598 metr, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 446 metr masofani o‘tadi, so‘ng umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 1508 metr, so‘ngra umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 363 metr masofada zovurni kesib o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 55-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°02'05.905", sharqiy uzoqlik 64°44'17.672").*

**55 - nuqtadan** chegara chizig‘i shimoliy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 858 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 56-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°02'25.332", sharqiy uzoqlik 64°44'42.577").*

**56 - nuqtadan** chegara quruq chegara chizig‘i orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 55 metr masofada kanalni kesib o‘tib dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 885 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 57-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°02'45.839", sharqiy uzoqlik 64°45'11.592").*

**57 - nuqtadan** chegara to‘g‘ri chiziq orqali Zarmitan kanalini janubiy-sharqiy yo‘nalishda 50 metr masofada kesib o‘tib kanalga tutashadi va sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda kanalning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2006 metr masofani o‘tadi, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 358 metr masofada suv taqsimlagichga tutashadi va suv taqsimlagich bo‘ylab shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 46 metr masofada Zarafshon daryosini kesib o‘tadi va shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda Zarafshon daryosining suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan 326 metr masofani o‘tib, daryo qirg‘og‘ida

joylashgan 58-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°03'19.882", sharqiy uzoqlik 64°46'29.355").*

**58 - nuqtadan** chegara chizig‘i umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda Zarafshon daryosining suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan 12554 metr masofani o‘tadi, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3510 metr masofani o‘tib, daryo qirg‘og‘ida joylashgan 59-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°08'55.550", sharqiy uzoqlik 64°51'34.561").*

**59 - nuqtadan** chegara to‘g‘ri chiziq orqali Zarafshon daryosini kesib o‘tib, ariqqa tutashadi va shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 353 metr masofadan keyin sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 872 metr masofani o‘tadi, keyin shimoliy yo‘nalishda 226 metr masofani o‘tib, so‘ng to‘g‘ri chiziq orqali dala tuproq yo‘li va Jilvon kanalini kesib o‘tib, ariqqa tutashadi va umumiy shimoliy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 698 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 60-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°09'31.144", sharqiy uzoqlik 64°52'26.758").*

**60 - nuqtadan** chegara to‘g‘ri chiziq orqali avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, ariqqa tutashadi va g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 998 metr masofadan keyin ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 869 metr masofani o‘tadi, keyin quruq chiziq orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 761 metr masofada zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 193 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 61-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°10'14.966", sharqiy uzoqlik 64°52'57.178").*

**61 - nuqtadan** chegara chizig‘i shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda kanalning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 3001 metr masofani o‘tadi, keyin shimoliy yo‘nalishda 1986 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 62-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°12'47.491", sharqiy uzoqlik 64°52'05.481").*

**62 - nuqtadan** chegara to‘g‘ri chiziq orqali shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 56 metr masofada kanalni kesib o‘tib, zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 409 metr masofani o‘tadi, keyin quruq chiziq orqali shimoliy yo‘nalishda 376 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning g‘arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 146 metr masofani o‘tib, Buxoro viloyati, Qiziltepa va Konimex tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joy, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan boshlang‘ich 1 - nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°12'58.950", sharqiy uzoqlik 64°52'24.280").*

Xalq deputatlari Qiziltepa tumani
Kengashining
2025-yil 28-fevraldagi
VII-5-34-5-72-K/25 -son qaroriga
2-ilova

